
OQ YO'L, BITIRUVCHILAR!



Yurtimizda kasb-hunar maktablari bitiruvchilari birin-ketin qo'llariga o'qiganliklari haqida diplom olishmoqda.

2- kasb-hunar maktabining 6 ta yo'nalishi bo'yicha 266 nafar bitiruvchilariga diplom topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbirda tuman hokimligi mas'ullari, bitiruvchilarning ota-onalari qatnashdilar. Hokimyat vakillari, maktabi direktori bitiruvchilarga samimiy tilaklar bildirishib, kelgusida o'z kasblari bo'yicha ishga joylashishlari, oliy o'quv yurtlari talabalari bo'lishlarini tilashdi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan a'lo baholarga o'qigan bir guruh bitiruvchilarga maktab ma'muriyatining faxriy yorliqlari topshirildi.

Bitiruvchilarga egallagan kasblari bo'yicha diplomlar topshirildi.

Davrani tuman madaniyat bo'limining havaskorlari qizitishdi.

Bitiruvchilarga keyingi hayotlarida olgan kasblari bo'yicha xalqqa foydasi tegadigan inson bo'lishlarini va oliy o'quv yurtlariga topshirmoqchilariga oq yo'l tilab qolamiz.

YoZYoVON TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATI

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-07-07 17:28:07